

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN ZOOGIGENIYA VA VETERINARIYA ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Zoogigeniya va veterinariya asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Zoogigeniya va veterinariya asoslari

1. Zoogigeniya fani haqida qisqacha malumot;
2. Molxonalardan go'ngni chiqarish;
3. Qishloq xo'jaligi hayvonlarining mahsuldorligi;
4. Chorva mollarining asosiy kasalliklari;
5. Umumiy patologiya;
6. Parranda kasalliklari va ularning oldini olish;
7. Quyon kasalliklari va ularning oldini olish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Zoogigeniya fani haqida qisqacha ma'lumot	Havo harorati,namligi,va shamolning harakat tezligini aniqlash va hayvonlarga ta'sirini bilish, tuproqqa bo'lgan zoogigenik talablar, sug'orish gigeniyasi, oziqlantirish gigeniyasi, binolarga bo'lgan zoogigenik talablar, ferma qurilishdagi zoogigenik talablarni bilish va tasavurga ega bo'lish.	32.5 %	13 ta
2	Molxonalardan go'ngni chiqarish	Go'nglarni tozalash,qayta ishlash va zararsizlantirish usullarini bilish, Fermalarda profilaktika, sanitariya va gigeniya talablarini bilish,chorvachilik fermalarning sanitariya holati haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.	2.5 %	1 ta
3	Qishloq xo'jaligi hayvonlarining maxsuldorligi	Qoramollar gigebiyasi,ularni saqlash oziqlantirish, mahsuldorlik ko'rsatgichlari haqida bilimlarga ega bo'lish. Otlar gigebiyasi, ularni saqlash oziqlantirish, mahsuldorlik ko'rsatgichlari haqida bilimlarga ega bo'lish. Qo'ylar gigebiyasi, ularni saqlash oziqlantirish, mahsuldorlik ko'rsatgichlari haqida bilimlarga ega bo'lish	32.5 %	13 ta
4	Chorva mollarining asosiy kasalliklari	Chorva mollarida uchraydigan kasalliklar va ularning turlari yuqumli, yuqumsiz va parazitar kasalliklar, ularning kechishi sabablari,k linik belgisi, oldini olish va davolash usullari haqida bilimlarga ega bo'lish	2.5 %	1 ta
5	Umumiy patologiya	Hayvonlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar, etiologiyasi, kasallik kechish bosqichlari, klinik belgisi, kasallikka tashxis qo'yish va qiyosiy tashxis qo'yish ,kasallikning oldini olish va davolash usullari haqida bilimlarga ega bo'lish, Yavvonlarning tug'ruqdan oldingi va keyingi uchraydigan kasalliklari,uning sabablari klinik belgisi, oldini olish va davolash usullari haqida bilimlarga ega bo'lish,hayvonlarda uchraydigan invazion kasalliklar yuqish yo'llari, klinik belgisi, oldini olish va davolash usullari haqida bilimlarga ega bo'lish	20 %	8 ta

6	Parranda kasalliklari va ularning oldini olish	Parrandalarda uchraydigan yuqumsiz kasalliklar, etiologiyasi, kasallik kechish bosqichlari, klinik belgisi, kasallikka tashxis qo'yish, haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish. Parrandalarda uchraydigan yuqumli kasalliklar, uning klinik belgilari tashxis qo'yish usullari, davolash va oldini olish usullari, Parrandalarda uchraydigan invazion kasalliklar, uning klinik belgilari tashxis qo'yish usullari, davolash va oldini olish usullari haqida bilimlarga ega bo'lish.	5 %	2 ta
7	Quyondagi kasalliklari va ularning oldini olish	Quyondagi kasalliklar, etiologiyasi, kasallik kechish bosqichlari, klinik belgisi, kasallikka tashxis qo'yish, haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish. Quyondagi yuqumli kasalliklar, uning klinik belgilari tashxis qo'yish usullari, davolash va oldini olish usullari, Quyondagi uchraydigan invazion kasalliklar, uning klinik belgilari tashxis qo'yish usullari, davolash va oldini olish usullari haqida bilimlarga ega bo'lish.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	75 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	7.5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	17.5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test

4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test
----	----	--

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Suvonqulov Y.A. Qishloq xo'jaligi hayvonlari gigiyenasi. Toshkent, 1994 y.
2. T.H.Ikromov. Chorvachilik(darslik).T."Mehnat".1985
3. T.H.Ikromov. Chorvachilik asoslari(darslik).T."O'qituvchi".1996
4. T.H.Ikromov. Qishloq xo'jaligi hayvonlarining anatomiyasi va fiziologiyasi(darslik).T."sharq".2001